

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

SHERALIYEV AXROR SODIQOVICH

**AGROSERVIS SOHASINI DIVERSIFIKASIYALASH VA
RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.04 - Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Sheraliyev Axror Sodiqovich

Agroservis sohasini diversifikatsiyalash va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish 3

Шералиев Ахрор Содикович

Совершенствование организационно-экономических механизмов развития и диверсификации агросервисной сферы 27

Sheraliyev Akhror Sodikovich

Improvement of organizational and economic mechanisms for the development and diversification of the agroservice sphere 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 57

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/28.02.2022.I.18.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

SHERALIYEV AXROR SODIQOVICH

**AGROSERVIS SOHASINI DIVERSIFIKASIYALASH VA
RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.04 - Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestasiya komissiyasida B2017.2.PhD/Iqt101 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.sies.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Choriyev Qurbon Amirovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali O'ralovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Toshkent davlat agrar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi PhD.03/28.02/2022.1.18.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "9" *Sentyabr* soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (998 66) 231-07-45; Faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: sies_info@edu.uz

Dissertatsiya bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (998 66) 233-19-84; Faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: sies_info@edu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "28" *avgust* kuni tarqatildi.
(2023-yil "28" *avgust* dagi № *11* raqamli reyestr bayonnomasi).



M.E.Po'latov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

Sh.O.Kuvandikov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., dotsent

M.M.Muxammedov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jaxon iqtisodiyotining moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari jamiyat tarqqiyotida hal etuvchi bazis sifatida muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Biroq, real tarmoqlarni istiqbolli rivojlantirishda ustqurma rolini bajaruvchi turli xizmatlar ko'rsatuvchi sohalar, jumladan, agroservis sohasi alohida o'ringa ega, chunki, uning asosiy funksiya va yo'nalishlari iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini uzviy bog'lab turuvchi, agrosanoat majmuining markaziy bo'g'ini hisoblangan qishloq xo'jaligi faoliyati bilan bevosita bog'liq. Jahondagi FAO ma'lumotlariga ko'ra "dunyo aholisining oziq-ovqatlarga bo'lgan talabini qondirish uchun 2050 yilga borib qishloq xo'jaligi maxsulotlari yetishtirish hajmini 60 foizga oshirish zarur"¹ deb hisoblanmoqda. Shu jihatlardan ham, agrar sohada mahsulot va xizmatlar ishlab chiqaruvchi subyektlar faoliyati samaradorligi va qishloq aholisining real daromadini barqaror oshirish nafaqat hozirgi kunda, balki, kelajakda ham servis xizmatlari sohasini rivojlantirish va diversifikatsiyalashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizm-lari va institusional asoslarini raqamli iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar talablariga mos takomillashtirishni taqozo etadi.

Dunyodagi industrial taraqqiy etgan davlatlar qishloq xo'jaligida va u bilan bog'liq tarmoq va sohalarda kooperasiya shakl va munosabatlari hamda servis tizimi asosida o'zaro manfaatli rivojlanish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Ta'kidlash joizki, respublikamizda "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"²da muhim maqsadlardan biri sifatida "qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 barobar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish"² belgilab qo'yilgan. Biroq, respublika qishloq xo'jalik korxonalarini, fermer va dehqon xo'jaliklariga ko'rsatilayotgan agroservis xizmatlari nafaqat hajm jihatdan, balki sifat va muddat jihatdan ham bugungi kun talablariga javob bermasligi, sohada diversifikatsiyalashning past darajada ekanligi, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning yetarlicha o'rganilmaganligi kabi muammolar mavjud bo'lib, bu esa mazkur yo'nalishlarda chuqur ilmiy izlanishlar olib borish zaruriyatini belgilaydi.

Shuning uchun ham "ilm-fan va innovasiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish, agrosanoat korxonalarini xom-ashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobar oshirish"³ bilan bog'liq strategik vazifalarni samarali hal etishda servis xizmatlarini rivojlantirish, ushbu soha xo'jalik subyektlari faoliyatini agroxizmatlar bozorida shakllanadigan talab va taklif asosida diversifikatsiya qilish, ularning natijalarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalarining pirovard natijalariga kooperasiya asosida bog'lash ustuvor yo'nalish sifatida hal etishni talab qiladi. Ushbu yo'nalish, fikrimizcha, ko'rsatiladigan agroservis xizmat turlarini kengaytirish va sohaga innovasion raqamli axborot-texnologiyalarni joriy etish orqali yangi ish o'rinlarini

¹ http://www.plam.ru/ucebник/rynok_prodovalstvennyh_tovarov/p2.php.

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармони билан тасдиқланган "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси"

³ Ўша жойда.

yaratish, agrotexnologik tadbirlarni sifatli va o‘z muddatida bajarish hisobiga ekinlar hosildorligini, va, demak, xo‘jalik subyektlari daromadlarini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu boisdan, agroservis sohasini diversifikatsiyalash va rivojlantirishning institusional asoslari va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini raqamli iqtisodiyot talablariga mos takomillashtirish obyektiv zaruriyatdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2018 yil 30 oktyabrdagi PF-5564-son “Tovar bozorlarini yanada erkinlashtirish va raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022 yil 27 yanvardagi PQ-104-son “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021 yil 11 maydagi PQ-5113-son “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida mahsulot(xizmat)lar ishlab chiqarish, xom ashyolarni qayta ishlash asosida aholini tayyor iste‘mol tovarlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, moddiy ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatuvchi subyektlarni qo‘llab-quvvatlash, ular o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, xizmatlar sifatini yaxshilash, agroservis sohasiga axborot-texnologiya vositalarini joriy etish bilan bog‘liq muammolarning ilmiy-nazariy va uslubiy-amaliy yechimlariga bag‘ishlangan ilmiy ishlar bir qator tadqiqotchilar tomonidan samarali olib borilgan.

Agroservisning mazmun va mohiyati bir qator xorijlik va mahalliy olimlar, jumladan⁴, chet el olimlari F.Kotler K.R.Makkonnell, S.L.Bryu, respublikamiz misolida⁵ M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, M.M.Muxammedov, M.E.Po‘latov,

⁴ Макконнелл К.Р., Брю С.Л., Экономикс – Принципы, проблемы и политика. /В 2 –х томах. Пер.с англ. – Тактин. Римол. 1993. Т.: 1. – 398 с.

⁵ Пардаев М.Қ. “Хизматларнинг ижтимоий-иқтисодий табиати ва уни ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари” (назарий жиҳатлар) // Сервис. – Самарқанд, 2009. – № 1. Б. 37-44.; Тухлиев И.С., Ҳайитбоев Р., Сафаров Б.Ш., Туризм асослари // Дарслик. – Тошкент, 2014.; Мухаммедов М.М., Исакова С.А., Мардонов Б.Б., Уринбаева Ю.П., Мухаммедова З.М., Халиков Й.М., Аграр ислохотлар ва аҳоли бандлиги. // Монография. – Т.: “Иқтисодиёт”, 2015.; Мирзаев Қ.Ж., Агросервис иқтисодиёти // Монография. – Тошкент «Иқтисод-Молия», 2013.; Қурбонов Ж.М. Хизмат, хизмат кўрсатиш, сервис // Сервис. – Самарқанд, 2009. – №1. – Б. 56-64.; Алиев Я.Э. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари, агроресурслар ва агрохизматлар бозорларини ривожлан-тиришнинг илмий-услубий асосларини такомиллаштириш. И.ф.д.(DSc) дисс. автореферати.- Т.:2018й.–81 б.; Ҳамраева С.Н. Қишлоқ хўжалигига хизмат кўрсатувчи инфратузилмани инновацион ривожлантириш йўналишлари. Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати.- Тошкент, 2019 й. – 73 б.; Кўччиев У.М. Чорвачилик хўжаликларига хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришнинг илмий-услубий асосларини такомиллаштириш. И.ф.д. (DSc) дисс. автореферати.- Тошкент, 2020 й. – 81 б. Чариев Қ.А. Пахта ва дон еиштиришга ихтисослашган фермер хўжаликлари таъсисчилигида қишлоқ хўжалик кооперативи ташкил этиш бўйича Услубий тавсиялар.-Т.: ЎзБИИТИ, 2011.- 34 б.; Туробова Ҳ.Р. Фермер хўжаликларини ривожлантиришда кооперация муносабатларини такомиллаш-тириш моделлари ва

Q.J.Mirzayev, O.M.Pardayev, J.M.Qurbonov, Y.E.Aliyev, S.N.Xamrayeva, U.M.Ko‘chchiyev, Q.A Chariyev, H.R. Turobova va boshqa olimlarning ilmiy asarlar va maqolalari, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarida o‘z aksini topgan.

Shunga qaramasdan, ilmiy asarlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, mazkur tadqiqotlarda agroservis sohasini rivojlantirish, xo‘jalik subyektlari faoliyatini agroxizmatlar bozoridagi taklif va talablarning o‘zgarishini hisobga olgan holda takomillashtirish va diversifikatsiyalash, tashkiliy–iqtisodiy mexanizmlarni hozirgi rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyot va axborot-texnologiyalar talablari asosida amaliyotga joriy qilish, servis xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalarining raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini oshirish, ularning o‘zaro faoliyatini kooperasiya asosida tashkil etish kabi muammolar yetarli darajada o‘rganilmagan. Bu holatlar ushbu dissertatsiya ishi mavzusini tanlashga asos bo‘ldi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Samarqand iqtisodiyot va servis institutining «Iqtisodiyotdagi chuqur tarkibiy o‘zgarishlar sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolari» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida agroservis sohasini rivojlantirish, xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar faoliyatini diversifikatsiyalashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

agroservis sohasining ilmiy-uslubiy asoslari, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishdagi roli va o‘ziga xos yo‘nalishlarini tadqiq qilish;

agroservis xizmatlari samaradorligini baholash usullari va ko‘rsatkichlar tizimini asoslash;

agroservis sohasini rivojlantirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xorij tajribasi va mexanizmlaridan respublikamizda foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish;

respublika agroservis sohasida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish darajasi va tendensiyalarini tahlil qilish;

respublika agroservis sohasining institusional asoslarini tahlil qilish va ulardan foydalanishning hozirgi holatiga baho berish;

respublikada agroservis bozorining hozirgi holati va uni rivojlantirishdagi mavjud muammolarni tahlil qilish;

agroservis sohasi va xo‘jalik yuritish subyektlari faoliyatini agroxizmatlar bozori mexanizmlari va innovasion texnologiyalarni qo‘llash orqali diversifikatsiyalash yo‘nalishlarini asoslash;

agroservis xizmatlari ko‘rsatish tizimini kooperasiya shakl va mexanizmlarini qo‘llash asosida rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

Samarqand viloyati fermer xo‘jaliklariga ko‘rsatiladigan servis xizmatlari hajmining 2026-yilgacha bashorat ko‘rsatkichlarini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi, shu jumladan Samarqand viloyatidagi agroservis korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib agroservis xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalarining va ular faoliyati bilan bog‘liq boshqa subyektlar o‘rtasidagi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida qiyoslash, monografiq tanlab kuzatish, korrelyasiya-regressiya, konstruktiv hisoblash, mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya, ekonometrik modellashtirish, analiz va sintez kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra agroservis sohasini diversifikatsiyalash va innovatsion rivojlantirishda “faoliyatni innovatsion differensiyalash”, “xarajatlar bo‘yicha absolyut ustunlikka erishish” va “fokus” strategiyalaridan integratsiya asosida foydalanishning ahamiyati va obyektiv zaruriyati ilmiy asoslangan;

agrar sohada xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan tashkiliy-iqtisodiy tuzilmalarni nisbiy afzallik jihatlarini qiyosiy baholash bo‘yicha uslubiy yondashuv asosida agroservis kooperativining agroservis klasteriga nisbatan afzallik indeksining [IA = 2,5-3,0] miqdoriy chegarasi asoslangan;

qishloq xo‘jaligi kooperativi va agroservis kooperativi tuzilmalarini integratsiyalash asosida “Qo‘shma (gibrid) qishloq xo‘jaligi kooperativi”ning tashkiliy-tarkibiy tuzilmasini yo‘lga qo‘yish taklifi ishlab chiqilgan;

Samarqand viloyatida agroservis sohasini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash asosida fermer xo‘jaliklariga ko‘rsatiladigan servis xizmatlar hajmining 2026 yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

respublika iqtisodiyotining moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishida agroservis xizmatlar ko‘rsatish sohasining roli, o‘rni va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatiga baho berilgan;

xizmatlar hajmi va sifatini oshirishga ta‘sir etuvchi omillar aniqlanib, ulardan foydalanish bilan bog‘liq tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish va joriy qilish asosida agroservis korxonalarining raqobatdoshligi va samaradorligini oshirish yo‘llari asoslangan;

agroservisni innovatsion asosda rivojlantirish bo‘yicha jahondagi taraqqiy etgan davlatlar yutuqlaridan respublikamiz sharoitida qo‘llash bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

agroservis korxonalari va ular xizmat ko‘rsatadigan xo‘jalik yuritish subyektlari hamkorligida kooperatsiya shakl va mexanizmlariga asoslangan, ular o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni o‘zaro manfaatli integratsiyalashning samarali tuzilmalarini shakllantirish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish va tatbiq etish yo‘nalishlari asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo‘llanilgan ilmiy-nazariy va uslubiy-amaliy yondashuvlarning agroservis korxonalari raqobatbardoshligi va

iqtisodiy samaradorligiga oid xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlanmalari va amaliy natijalariga asoslanganligi, statistik ma'lumotlarning Davlat statistika qo'mitasi davriy hisobot va to'plamlaridan olinganligi, agroservis korxonalari buxgalteriya hisobotlari va monografik o'rganilgan qishloq xo'jalik korxonalarining amaldagi ma'lumotlariga asoslanganligi hamda muallif o'tkazgan sosiologik so'rov natijalaridan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tatbiq etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va ishlanmalardan agroservis korxonalari raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini oshirishga doir ilmiy-nazariy va metodologik jihatdan chuqur tadqiq qilish hamda ushbu sohani rivojlantirishning fundamental asoslarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan uslubiy-amaliy taklif va tavsiyalardan agroservis xizmatlari ko'rsatish iqtisodiy samaradorligini oshirish, soha korxonalari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini raqamli iqtisodiyot va axborot-texnologiyalarni joriy etish talablariga mos takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar va dasturlar ishlab chiqish, shuningdek, mavzuga tegishli o'quv jarayonlari va o'quv-uslubiy adabiyotlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Agroservis korxonalari raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra agroservis sohasini diversifikatsiyalash va innovatsion rivojlantirishda "faoliyatni innovatsion differensiasiyalash", "xarajatlar bo'yicha absolyut ustunlikka erishish" va "fokus" strategiyalaridan integratsiya asosida foydalanishning ahamiyati va obyektiv zaruriyati ilmiy asoslangan nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan "Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 22 avgustdagi 284-sonli buyrug'i hamda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashining 2023 yil 30 maydagi 10-sonli majlis qarori). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda agroservis sohasini diversifikatsiyalash va innovatsion rivojlantirishda faoliyatni innovatsion differensiasiyalash, xarajatlar bo'yicha absolyut ustunlikka erishish va fokus strategiyalaridan integratsiya asosida foydalanish to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish imkoni yaratilgan;

agrar sohada xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan tashkiliy-iqtisodiy tuzilmalarni nisbiy afzallik jihatlarini qiyosiy baholash bo'yicha uslubiy yondashuv asosida agroservis kooperativining agroservis klasteriga nisbatan afzallik indeksining [$I_A = 2,5-3,0$] miqdoriy chegarasi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Agrar tadbirkorlikni rivojlantirish boshqarmasi tomonidan qishloq xo'jaligidagi samarali tashkiliy-iqtisodiy tuzilmalar faoliyatini baholash uslubiyotini takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 17-fevraldagi 07/22-05/674-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur

ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida respublikada agroservis kooperativining agroservis klasteriga nisbatan 2,5-3,0 marta yuqori afzallik indeksi ilmiy asoslanib, sohada samarali rivojlanish taraqqiyotiga yo‘l ochib berish imkoni yaratilgan;

qishloq xo‘jaligi kooperativi va agroservis kooperativi tuzilmalarini integrasiyalash asosida “Qo‘shma (gibrid) qishloq xo‘jaligi kooperativi”ning tashkiliy-tarkibiy tuzilmasini yo‘lga qo‘yish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Agrar tadbirkorlikni rivojlantirish boshqarmasi tomonidan qishloq xo‘jaligidagi samarali tashkiliy-iqtisodiy tuzilmalar faoliyatini baholash uslubiyotini takomillashtirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 17 fevraldagi 07/22-05/674-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida respublikada “Qishloq xo‘jaligi kooperativi” va “Agroservis kooperativi” ta‘sischiligida “Qo‘shma (gibrid) qishloq xo‘jaligi kooperativi”ning tashkiliy-tarkibiy tuzilmasi loyihasi va ta‘sischilari o‘rtasidagi munosabatlar tizimi ishlab chiqilib, sohani jadal taraqqiy ettirishning yangi imkoniyatlari ochib berilgan;

Samarqand viloyatida agroservis sohasini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash asosida fermer xo‘jaliklariga ko‘rsatiladigan servis xizmatlar hajmining 2026 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan hududlardagi fermer xo‘jaliklariga servis xizmatlar ko‘rsatishni rivojlantirish istiqbol dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 17 fevraldagi 07/22-05/674-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida respublikada, jumladan Samarqand viloyatida fermer xo‘jaliklariga ko‘rsatiladigan servis xizmatlar hajmining 2026 yilgacha bo‘lgan prognoz parametrlari ishlab chiqilishi natijasida agroxizmatlardan olinadigan daromad 2026 yilga borib 249,2 mlrd. so‘mni tashkil etishi va 2021 yilga nisbatan 30 foiz barqaror o‘shishini aniqlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta halqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 13 ta ilmiy ish, shundan 1 ta o‘quv qo‘llanma (hammualliflikda), O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, 3 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekt va pred-meti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi asoslangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot

natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobeiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi **“Agroservis sohasining ilmiy-uslubiy asoslari va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishdagi roli”**ga bag'ishlangan bobida agroservis sohasining ilmiy-uslubiy asoslari, qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi roli va o'ziga xos yo'nalishlari, agroservis xizmatlari samaradorligini baholashning uslubiy asoslari va ko'rsatkichlar tizimi, agroservis sohasini rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasi va mexanizmlaridan respublikamiz sharoitida foydalanish yo'llari yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini kelgusi taraqqiyotida agrar tarmoq va uning sohalariga ko'rsatiladigan agroservis xizmatlari samaradorligini oshirish va ushbu tizimni raqamli iqtisodiyot talablariga mos tashkil etish hamda takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi Chunki, hozirgi sharoitda, tahlillar ko'rsatishicha, yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 25-30 foizi iste'molchilarga yetib bormayotganligi ko'p jihatdan xizmat ko'rsatishning talab darajasida emasligiga borib taqalmoqda. Vaholanki, respublikamizda bir necha turdagi agrar (qishloq xo'jaligi) mahsulotlarini ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lsada, ammo aholining tez o'sib borayotgan ehtiyojini yetarlicha to'la qondirish imkoniyatiga ega emasligi aniqlangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, agroservis sohasining alohida xizmat ko'rsatish tizimi sifatida quyidagi o'ziga xos xususiyatlari ilmiy asoslanilgan. Jumladan:

birinchidan, agroservis sohasi qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlari bilan bog'liq bo'lgan xizmatlarni shakllantiradi va muvofiqlashtiradi;

ikkinchidan, qishloq xo'jaligining dehqonchilik va chorvachilik quyi tarmoqlari samaradorligi bevosita agroservis sohasining rivojlanishi va ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi, muddati va sifatiga chambarchas bog'liq. Shu sababdan ham, qishloq xo'jaligida amalga oshiriladigan xizmatlarni diversifikatsiya qilish va raqamli iqtisodiyot talablariga mos intensiv rivojlantirishni taqozo etadi;

uchinchidan, agroservis sohasini modernizatsiya va diversifikatsiyalash qishloq joylarda yangi ish o'rinlarini kengaytirish orqali mehnat bandligi va aholini ish bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligi ishchi-xodimlarining daromadlarini oshirish muammolarini hal etish imkoniyatlarini yaratadi;

to'rtinchidan, qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish, ekinlar hosildorligi va sug'orma yerlarning unumdorligini oshirish, o'simchilik va chorvachilik xo'jaliklariga ko'rsatiladigan barcha xizmatlarni innovatsiyalar asosida tashkil qilish holati xizmat ko'rsatish sohasining qay darajada taraqqiy etganligini belgilab berish va boshqa shu kabi jihatlari tadqiq etilgan.

Tadqiqot ishida agroservis samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Bizningcha, sohaning integral samaradorlik ko'rsatkichini baholash uslubiy jihatdan ma'lum bir murakkablikka ega, chunki uning darajasi, ma'lumki, avvalombor soha korxonalarining iste'molchilarga ko'rsatadigan xizmatlar samaradorlik ko'rsatkichlarining qo'yilgan maqsad doirasidagi umumlashgan yig'indisi sifatida ifodalanadi. Biroq, erishilgan

ko'rsatkichlar darajasini real baholash uchun, bizningcha, quyidagi omil va yo'nalishlar ta'sirini hisobga olish lozim:

birinchidan, agroservis sohasini rivojlantirish, xizmat ko'rsatish subyektlari faoliyatini diversifikatsiyalash, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va moddiy rag'batlantirish hamda innovasion texnika va texnologiyalarni joriy etish yo'nalishlarida xorijiy ilg'or tajribalardan foydalanish;

ikkinchidan, modernizatsiyalash asosida agroservis korxonalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yangi ilmiy-texnik ishlanmalarni joriy etish orqali doimiy takomillashtirib borish;

uchinchidan, agroservis xizmatlarini o'z muddati va sifatida amalga oshirish hisobiga mahsulot (tovar) ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirish hamda buning uchun intensiv omillardan maqbul nisbat va hajmlarda to'liq foydalanish;

to'rtinchidan, agroservis xizmatlari ko'rsatish va mahsulot (tovar)lar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, subyektlari o'rtasidagi aloqa, moliyaviy va o'zaro shartnoma munosabatlarini amalga oshirish holatlarida vaqt omilidan tejamli foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish uchun zamonaviy axborot-kommunikasiya vositalarini izchil joriy etish va sh.k.

Tadqiqot jarayonida agroservis xizmatlari samaradorligini baholashda uch guruh ko'rsatkichlar, ya'ni natural, qiymat va qiyosiy taqqoslash (nisbiy) ko'rsatkichlardan foydalanildi (1-jadval).

1-jadval

Agroservis samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, ularni baholash mezonlari va mohiyati⁶

Ko'rsatkichlar guruhi	Ko'rsatkichlarning mohiyati va mezonlari
Natural	Agroservis korxonalarida bir ish birligini bajarish uchun ko'rsatilgan xizmat hajmi, ga, tn, km.
	Bir soat davomida xizmat ko'rsatilgan hudud va hajm, ga, tn., km.
	Bir sentner mahsulot yetishtirish uchun ko'rsatilgan xizmat, ga, tn., so'm.
	Bajarilgan xizmat birligi hisobiga saqlab qolingani hosil, sn, kg.
Qiymat	Bir birlik resurs (yer, texnika, mehnat va h.k.) hisobiga bajarilgan xizmatlar qiymati, so'm.
	Xizmat birligi hisobiga yaratilgan qo'shimcha hosil qiymati, so'm.
	Agroservis hisobiga olingan yalpi, sof daromad va foyda, so'm
	Agroservis sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi va ulardan foydalanish darajasi, so'm.
Nisbiy (Taqqoslash)	Servis xizmatlari ko'rsatish ko'lami darajasi, ga, km, chorva mollari soni va h.k.larining o'sishi.
	Ko'rsatilgan xizmat turining sifat darajasi,%.
	Xizmatlarning belgilangan muddatlarda bajarilganlik darajasi,%.
	Xizmatlarning iste'molchilar uchun kafolatlanganlik darajasi,%.
	Agroservis tizimining belgilangan me'yor va talablarga muvofiqlik darajasi,%.
	Agroservisda ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalanish darajasi,%.
	Agroservisning ekologik muvozanatga ta'siri darajasi,%.
Agroservis korxonalarida ishlovchi xodimlarning malaka darajasi,%.	
Rentabellik darajasi, %	

⁶ Tadqiqot asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tadqiqot jarayonida 84 ta fermer xo‘jaligi egalaridan agroxizmatlardan foydalanish va ularga talabni o‘rganish maqsadida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomada Kronbax alfa koeffitsiyenti, Laykert va Cheddok shkalasiga asoslangan korrelyasiya-regressiya munosabatlari aniqlandi. So‘rovnomaning natijaviy ma‘lumotlari tahliliga asosan, faqatgina c_{11} (fermer-larning kooperasiya asosida agroservis korxonalarini bilan o‘zaro hamkorlik qilishga munosabati) o‘zgaruvchining 4 (yaxshi) parametri erksiz o‘zgaruvchi c_{10} (xo‘jalikda agroservis korxonalarini tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarga ehtiyojningiz bormi?) ga salmoqli darajada ta‘sir qilishi aniqlandi. Shu bilan birga, boshqa omillar ta‘siri o‘zgarmaganda, fermerlarning kooperasiya asosida agroxizmat ko‘rsatuvchi korxonalar bilan hamkorlik munosabatining yaxshilanishi shu fermerlarning agroxizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini, munosabati yaxshi bo‘lmagan fermerlarga nisbatan, 36 marta oshirish ($\text{Exp}(B)=35,906$) imkoniyatini bergan. Bu esa so‘rovnoma natijalariga asoslanib, agroxizmat ko‘rsatuvchi subyektlar faoliyatini innovasion asosda rivojlantirishni ilmiy asoslagan.

Agroservis sohasini rivojlantirishning asosiy yo‘llaridan biri ularni raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlaridan maqsadli foydalanish muhimdir. Bizningcha, tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar raqamlashtirilayotgan va innovasion axborot-kommunikasiya vositalari joriy etilayotgan hozirgi sharoitda agroservis sohasini davlat tomonidan tartibga solish va rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlar bilan bog‘liq mexanizmlarni o‘z ichiga olishi lozim (2-jadval).

2-jadval.

Agroservis xizmatlar ko‘rsatish sohasini davlat tomonidan tartibga solish va rivojlantirish mexanizmlari⁷

Agroservis sohasini davlat tomonidan tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va muhim yo‘nalishlari		
<p>Iqtisodiy-moliyaviy</p> <ul style="list-style-type: none"> - agroservisni rivojlantirish uchun turli xildagi imtiyozli kreditlar ajratish; - innovasion xizmat turlari uchun subsidiyalar berish; - agroservis xizmat ko‘rsatish subyektlariga soliq imtiyozlari, shu jumladan, xorijiy davlatlarda keng qo‘llaniladigan soliq yukini kamaytirish, innovasiya harajatlarini soliq olinadigan bazadan chiqarish, soliq tanaffusi berish, soliq tulovlarini 3-5 yildan keyin to‘lash, ayrim hollarda soliqlardan ozod qilish; - agroservis sohasini rivojlantirish uchun davlat va mahalliy byudjetlardan manzilli moliya mablag‘lari ajratish; - sifatli servis xizmatlari ko‘rsatgan subyekt va ishchi-xodimlarni moddiy rag‘batlantirish va shu kabilar 	<p>Ijtimoiy-madaniy</p> <ul style="list-style-type: none"> - aholiga agroservis xizmatlari ko‘rsatish hajmi va sifatini oshirish hisobiga ularning daromadini oshirish; - o‘zini o‘zi band qilgan aholi qatlamiga turli xil imtiyozlar berish; - agroservis ishchi-xodimlarini ijtimoiy-madaniy rag‘batlantirish; - agroservis ishchi-xodimlarining ish xaqi miqdorini xizmat vazifasining murakkabligi bo‘yicha tabaqalash; - agroservis sohasida band bo‘lgan xodimlarining o‘z vazifalariga bo‘lgan munosabatlarini e‘tiborga olgan holda yuqori toifali ishlarga o‘tkazish; - agroservis korxonalarida korruptsiyaga qarshi tizimli ishlarni tashkil etish va shu kabilar. 	<p>Huquqiy-me‘yoriy</p> <ul style="list-style-type: none"> - agroservis sohasini rivojlantirishga oid huquqiy-me‘yoriy aktlarni takomillashtirish, davlat miqyosida manzilli dasturlar ishlab chiqish; - mehnat kodeksida agroservis xizmatlari bilan bog‘liq bo‘lgan alohida bandlarni kiritish; - agroservis korxonalarini rivojlantirishni davlatimiz rahbari va hukumati aktlari orqali tartibga solish va rivojlantirish chora-tadbirlari va imkoniyatlarini kengaytirish; - agroservis subyektlari ishchi-xodimlarining huquqiy-me‘yoriy bilimlarini oshirish uchun tegishli maxsus hujjatlar to‘plamini ishlab chiqish va shu kabilar.

⁷ Tadqiqot asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Agroservis sohasida davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari va samaradorlik ko'rsatkichlaridan oqilona foydalanishni tashkil etish uchun unga bevosita va bilvosita ta'sir etadigan quyidagi jarayonlar va o'zaro aloqalar tizimini e'tiborga olish talab etiladi, ya'ni:

agroservis sohasining umumjamiyat va umumxo'jalik faoliyat maqsadlari bilan bog'liq tashkiliy-iqtisodiy jarayonlar, bandlik, investisiyalar jalb qilish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish, pul muomasi va narx siyosatini takomillashtirish va sh.k.;

xizmat ko'rsatish sohasining boshqa yirik tarmoqlar, ya'ni, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, maishiy-kommunal, moliya kabi sohaslar bilan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarini raqamlashtirish orqali tashkil etish va rivojlantirish;

sohada faoliyat yurituvchi subyektlar va ularda faoliyat olib boruvchi mutaxassis va ishchi-xodimlarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash va h.k.

Tadqiqot ishida agroservis sohasini rivojlantirishga doir xorijiy davlatlarning iqtisodiy-moliyaviy, tarkibiy-tashkiliy, ijtimoiy va huquqiy-me'yoriy mexanizmlari hamda qishloq xo'jaligi subyektlariga ko'rsatiladigan xizmatlar tizimiga innovasion texnologiyalarni joriy etish asosida xizmatlar transaksiya xarajatlarini kamaytirish va samaradorligini oshirish tajribalari tadqiq etildi va ulardan respublikamiz sharoitida foydalanish yo'llari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Agroservis sohasining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va institusional asoslaridan foydalanish darajasining hozirgi holati”** ga bag'ishlangan bo'lib, unda respublikada agroservis sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlaridan foydalanish darajasi va tendensiyalari, O'zbekistonda agroservis sohasining institusional asoslari va ularni tatbiq etishning hozirgi holati, respublikada agroservis bozori (ASB)ning hozirgi holati va uni rivojlantirishdagi mavjud muammolar tahlil qilingan. Shunga muvofiq ishda respublikamiz iqtisodiyot tarmoqlariga ko'rsatilayotgan keng qirrali xizmatlar tizimining rivojlanish evolyusiyasini tadqiq etishga e'tibor qaratilgan.

Ma'lumki, mustaqillik yillaridan boshlab iqtisodiyotning barcha jabhalarida izchillik bilan amalga oshirilgan tadbirlar tufayli xizmat ko'rsatish sohasi ham tizimli ravishda rivojlanib, sohada raqobat muhiti qaror topdi, xo'jalik yuritishning turlicha shakllari vujudga kelib, bu jarayonni yanada takomillashtirish bugungi kunning muhim yo'nalishlari sifatida alohida e'tibor qaratishni obyektiv zaruriyatga aylantirmoqda. Jumladan, agroservis sohasi va bozorida yuz berayotgan tashkiliy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari, bizning nuqtai nazarimizga muvofiq, respublika mamlakat YaIMda ko'rsatilgan xizmatlar ulushi, iqtisodiyotning barcha sohaslarida band bo'lgan aholi tarkibida xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lganlar ulushi, aholi iste'mol xarajatlarining umumiy hajmida xizmatlar xarajatlarining ulushi, jami investisiyalar hajmida xizmatlar sohasiga jalb etilgan investisiyalar ulushi, eksport umumiy hajmida xizmatlar eksporti ulushi, import umumiy hajmida xizmatlar importi ulushi kabi bir qator makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilishi bilan xarakterlanadi.

Shunga qaramasdan, 2021 yilda xizmatlar sohasining mamlakat YaIM dagi ulushi 2000 yilga taqqoslaganda 1,7 punktga oshgan.

Tahlillar ko‘rsatishicha, hozirda respublika iqtisodiyotining muhim tarmog‘i qishloq xo‘jaligi va uning mahsulot yetishtiruvchi subyektlari, ya’ni, fermer, dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga ixtisoslashgan tegishli agroservis korxonalari tomonidan 8 ta asosiy xizmat turlarini ko‘rsatmoqda (3-jadval).

3-jadval.

2017-2021 yillarda respublika qishloq xo‘jaligiga ko‘rsatilgan agroservis xizmat turlari hajmi va o‘shish sur‘ati (mln. so‘m)⁸

t/r	Qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar	Yillar:					2021 y, 2017 y, ga nisbatan, % da
		2017	2018	2019	2020	2021	
1	MTPlar	746,2	802,4	757,7	702,4	645,1	86,5
2	Suv iste‘molchilar uyushmalari	5668,8	5832,6	5855,2	6013,5	6231,1	109,9
3	Yoqilg‘i-moylash ta‘minoti shoxobchalari	65312,1	66215,3	66732,2	67013,5	68114,2	104,3
4	Mineral o‘g‘itlar sotish shaxobchalari	127827	132012	132578	133469	134381	105,1
5	Mini banklar	224838	227362	243458	248321	256521	114,1
6	Zooveterinariya va sun‘iy urug‘lantirish shaxobchalari	1768,2	1921,5	1887,3	1906,8	2073,4	117,3
7	Biolaboratoriyalar	4965,2	5219,8	5367,7	5439,8	5500,2	110,8
8	Agrofirmalar	95943,4	94628,2	97032,6	102344	112031	116,8
	Jami:	527068,4	533993,9	553668,8	565210,4	585497,4	111,1

3-jadval ma’lumotlari tahliliga ko‘ra quyidagi asosiy xulosalarni keltirish mumkin: birinchidan, qishloq xo‘jalik subyektlariga ko‘rsatilgan mexanizatsiya xizmatlaridan tashqari (uning hajmi 2021 yilda 2017 yilga nisbatan 13,5 foizga kamaygan) boshqa barcha xizmat turlari bo‘yicha o‘shish ta‘minlangan, ikkinchidan, eng yuqori o‘shish sur‘ati moliya (kredit) resurslari va zooveterinariya bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hissasiga to‘g‘ri keladi va bu qishloq xo‘jaligi subyektlarini iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash, uchinchidan, ekinlarini turli kasallik va zararkunandalardan biologik himoya qilish, va, shuningdek, chorvachilik sohasida zooveterinariya va sun‘iy urug‘lantirish bo‘yicha agroxizmatlar hajmini ko‘paytirishga katta e’tibor berilayotganidan dalolatdir.

Tahlillar ko‘rsatishicha, 2021 yil 1-yanvar holatiga ko‘ra respublikada, masalan, bitta MMTP hisobiga 47 ta fermer xo‘jaligi va 2357 ga yer maydoni, SIUga mos ravishda 47 ta va 2370 ga, zooveterinariya punktlariga 983 ta fermer xo‘jaliklari va 49446 ga yer maydoni to‘g‘ri keladi. Bizningcha, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi barcha subyektlarga ko‘rsatiladigan xizmat turlari me‘yorlaridan kelib chiqqan holda infratuzilma obyektlari soni va innovasion texnikalar ishlab chiqarish quvvatini har bir hudud va subyekt bo‘yicha aniqlash lozim. Shu bois, Samarqand viloyati Payariq tumanidagi “Ziroatshunos paxtasi” va

⁸ Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалиги вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланган

“Karim Ota” fermer xo‘jaliklarida g‘o‘za qator oralariga ishlov berish paytida agroxizmatlar natijadorlik darajasi, ya‘ni ko‘pgina agrotexnik tadbirlarni bir vaqtda bajaradigan resurstejamkor AXION-810+Sapxir7/300-DS texnikasidan foydalanish samaradorlik ko‘rsatkichlari bilan baholandi (4-jadval).

4-jadval.

Paxta xomashyosi yetishtirishda innovasion texnikalardan foydalanish samaradorlik ko‘rsatkichlari (Samarqand viloyati Payariq tumanidagi fermer xo‘jaliklarining 2020-2021 yillardagi o‘rtacha ma‘lumotlari asosida)⁹

Tadbir va ko‘rsatkichlar nomi	O‘lchov birligi	Fermer xo‘jaligining nomi		Ilg‘or texnikaning asosiy natijalari(+;-)
		“Karim ota” f/x	“Ziroatshunos paxtasi” f/x	
Texnologik				
Baronalash	Marta	Magnun + MB-8+tishli	AXION-810+Saphir	Agregatining daladan o‘tishi 3 martaga qisqargan
Chizellash	Marta	Magnun + ChKU – 4A	7/300-DS	
Mola bosish	Marta	Magnun + MB-8		
Chigit ekish	Marta	TTZ-80.1+SZP-3,6		
Jami tadbirlar	Marta	1+1+1+1=4	1	
Urug‘lik sarfi	Kg/ga	70	46	- 24 kg
Yonilig‘i sarfi	l/ga	25+14+11+10=60	25	- 2,4 marta
Mehnat sarfi	k/soat/ga	0,16+0,20+0,14+0,20=0,70	0,45	- 1,55 marta
Iqtisodiy				
Hosildorlik	s/ga	28	34	+ 6 s/ga
Urug‘lik sarfi	So‘m/ga	1500000	1200000	- 300,0 ming so‘m
Yonilg‘i sarfi	So‘m/ga	3060000	2800000	- 260,0 ming so‘m
Mehnat sarfi	Kishi/so‘m	6060750	5818750	- 242,0 ming so‘m

4-jadval ma‘lumotlari asosida ta‘kidlash joizki, ekinlarga ishlov berish jarayonida texnikalar o‘tish sonining kamayishi tuproq zichlanishining oldini oladi, mikrobiologik elementlarni saqlab qoladi va natijada hosildorlik oshadi, ikkinchidan, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va, uchinchidan, ham xo‘jalik, ham ishchi-xodimlar daromadini ko‘paytirish imkoniyatini yaratadi. Masalan, Samarqand viloyati Payariq tumanidagi “Ziroatshunos paxtasi” fermer xo‘jaligida “Karim Ota” fermer xo‘jaligiga nisbatan urug‘lik chigit 34 kg/ga, yonilg‘i 2,4 va mehnat sarfi 1,55 martaga yaqin iqtisod qilingan.

Xulosa o‘rnida qayd etish joizki, qishloq xo‘jaligi va uning barcha sohalari subyektlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bugungi kunda tarmoqning moddiy-texnika bazasini modernizatsiyalash, ya‘ni texnika vositalarini aynan

⁹ Фермер хўжаликларига маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланган

resurstejamkorlik va ekin maydonlari unumdorligini nafaqat saqlash, balki oshirish nuqtai nazardan yangilash, ularning shleyfi (tirkama jihozlari)ni innovasion takomillashtirishga bevosita bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun, bizningcha, ushbu yo‘nanalishlar bilan bog‘liq investision loyihalar, dasturlar va chora - tadbirlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, mexanizasiya xizmatlari xarajatlarini kamaytirish maqsadida import qilinayotgan yangi avlod texnika-texnologiya vositalarini xarid qilish uchun imtiyozli kreditlar va subsidiyalar kabi rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish lozim deb hisoblaymiz.

Agroxizmatlar faoliyatini institusional rivojlantirish va uning mutanosibligini ta‘minlash ma‘lum bir uslubiy yondashuvlarga, ya‘ni iste‘molchilarga ko‘rsatiladigan xizmatlar, ularning hajmi va turlarini to‘g‘ri hisoblashga asoslanishi lozim. Xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarni aniqlash uchun ularning har bir turi uchun xarajatlar ($\sum N_{xb}$) yig‘indisi va bir birlik resurs yoki xizmat ko‘rsatish bahosi hisobga olinadi, ya‘ni:

$$\sum N_{xb} = T_{rx} \times H_i \quad (1)$$

Bu yerda: $\sum N_{xb}$ – tarmoq va sohalarning ushbu resurs yoki xizmatlarga rejali xarajatlari summasi, so‘m;

T_{rx} – ma‘lum bir turdagi resurs yoki agroxizmatga bo‘lgan talab, so‘m;

H_i – bir birlik resurs yoki agroxizmat narxi, so‘m.

Ushbu uslubiyotni amaliyotda qo‘llash tumanlarda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining istiqbolli biznes-rejasini ishlab chiqish, boshqa zarur ma‘lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va amaliy foydalanish jihatlaridan xalqaro me‘yorlarga javob berishini ta‘minlash maqsadga muvofiq. Shuningdek, bu uslubiyot aynan bevosita qishloq xo‘jaligi va uning mahsulot yetishtiruvchi subyektlari samaradorligini oshirish va ular o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish nuqtai nazardan agroservis xizmatlari bozorining o‘ziga xos xususiyatlari e‘tiborga olinishi lozim. Yuqoridagilardan kelib chiqib respublika agroservis bozorining tuzilmasi va uning tarkibiy subyektlari o‘rtasidagi tashkiliy iqtisodiy munosabatlarni tashkil qilish va rivojlantirishning samarali tizimi ishlab chiqildi.

Biroq, shuni ham alohida ta‘kidlash lozimki, 1-rasmda keltirilgan agroxizmatlar bozorining tarkibiy tuzilmasi asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi fermer, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hamda boshqa korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatiga bevosita turli xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilot va subyektlarni o‘z ichiga olgan. Amaliyotda esa ularga nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarining agrotexnologik tadbirlarini amalga oshirishda, balki bilvosita xizmat turlari ko‘rsatuvchi subyektlarning ham o‘z o‘rni va roli mavjudligini e‘tirof etish lozim.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, agrosevis bozorini rivojlantirish va uning tarkibiy subyektlari faoliyatini diversifikatsiyalash va modernizasiyalash asosida amalga oshirilayotgan tadbirlar birinchi navbatda iqtisoslashgan barcha yo‘nalishdagi infratuzilmalarni hududlar kesimida to‘g‘ri tashkil qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi subyektlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar xarajatlarini

kamaytirish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali xizmatlar harakatini tezlashtirish, innovasion xizmat turlarini kengaytirish va logistika tizimida raqobatni shakllantirish asosida fermer, dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga o‘z muddatida sifatli xizmat ko‘rsatishga qaratilgan.

Ishning **“Istiqbolda agroservis sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida agroservis sohasi va xo‘jalik yuritish subyektlari faoliyatini diversifikatsiyalash va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari, agroservis sohasida kooperasiya shakl va mexanizmlarini joriy etish va rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari hamda Samarqand viloyati fermer xo‘jaliklariga ko‘rsatiladigan servis xizmatlari hajmining 2026-yilgacha mo‘ljallangan bashorat ko‘rsatkichlari tahliliga bag‘ishlangan.

Respublikada agroservis sohasini rivojlantirishning muhim tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi sifatida sohani diversifikatsiyalash, raqobatbardoshlik darajasini ta‘minlash hamda yangi kooperasiya shakl va mexanizmlarini joriy etish, shuningdek xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishning prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish ilmiy asoslanilgan.

Agroservis korxonalarining samaradorlik va raqobatbardoshlik darajasi ular tomonidan ustuvor chora-tadbirlarning o‘z faoliyatlariga qay darajada muvaffaqiyatli amalga oshirish ko‘lami va tezligiga bog‘liqdir. Shu bois, servisdagi yuqori daromad (sof foyda) olish maqsadlarida yangi raqobatbardosh xizmatlarni yaratish va ularni innovasion texnologiyalar asosida iste‘molchilar talablariga mos ravishda amaliyotga tatbiq etish obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Shu jihatdan ham, amerikalik iqtisodchi M.Porter tomonidan korxonalar darajasida innovasion faoliyatni samarali tashkil etish va boshqarishga oid ishlab chiqilgan modeldan agroservis korxonalarini faoliyatini tashkil qilish va raqobatbardoshligini oshirish yo‘nalishlarida foydalanishni maqsadga muvofiq. Jumladan, M.Porter innovasion faoliyatni samaradorligiga erishish uchun quyidagi strategiyalarni¹⁰ tavsiya etgan.

Faoliyatni innovasion differensiasiyalash strategiyasi bu tarmoqda yoki korxonada yagona o‘ziga xos xususiyat, sifat va brendga ega bo‘lgan tovar yoki xizmat ishlab chiqarishga asoslangan bo‘lib, iste‘molchilarning narxga ta‘sirini kamaytirish va doimiy “sodiq” mijozlar guruhini yaratish orqali bozordagi kuchli raqobatdan himoya qiladi. Mijozlarning “sodiq” va yangi mahsulot (xizmat) yaratishga majbur qilishi korxonalar ishtirok etadigan bozorga boshqa raqobatchilar oqimini kamaytiradi.

Xarajatlar bo‘yicha absolyut ustunlik strategiyasida korxonalar o‘z ixtisosligi doirasida amalga oshiradigan ish (xizmat)lar xarajatlarini kamaytirish orqali tegishli bozor segmentida yetakchiga aylanish va raqobatchi korxonalar o‘rtacha daromadidan yuqori daromad olish asosiy maqsad bo‘lib hisoblanadi.

Fokus strategiyasi bu ma‘lum bir xaridorlar guruhiga, ularning didi va ehtiyojlarini muntazam qondirishga asosiy diqqat qaratish hisoblanadi. Ya‘ni, xaridor (mijoz)larning ehtiyoji va didi korxonalar faoliyatini belgilovchi maqsad

¹⁰ Мирзаев Қ.Ж., Шавқиев Э, Жанзаков Б.Қ., Инновацион иқтисодиёт, Ўқув қўлланма.-Г. “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2020 й.-298 бет.

